

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva</b>	
Zamonaviy axborot texnologiyalarining yosh avlod tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlili.....	141
<b>I.T.Tojiboev, Z.X.Komilova</b>	
Professional ta'lif muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishning zamonaviy usullari .....	145
<b>Z.X.Mamatova</b>	
Zamonaviy informatika mashg'ulotlariga qo'yilayotgan metodik talablarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari .....	151
<b>A.Y.Axmedov, Z.F.Sherqo'ziyeva</b>	
Ta'lif samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	156
<b>B.B.Djalalov</b>	
Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi.....	160
<b>B.S.Siddiqov</b>	
O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari.....	165
<b>D.A.Yo'idosheva</b>	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonav iy pedagogikada zaruriyat sifatida .....	170
<b>I.I.Tuychiyeva, Z.Axunova</b>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....	174
<b>J.U.Tojiboyev</b>	
Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi .....	178
<b>M.O.Karimova, X.X.Tojiyev</b>	
Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi .....	183
<b>Н.А.Абдуллаева</b>	
Педагогические проблемы формирования исследовательских компетенций будущих учителей.....	190
<b>N.S.Temirov</b>	
Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lif orqali talabalar bilimini oshirishning zamonaviy yondashuvlari .....	194
<b>O.F.Hamrayeva</b>	
Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	199
<b>Sh.O.Aripov</b>	
Xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida gender yondashuvni tadbiq etishga doir fikirlari .....	204
<b>Sh.N.Mehmonaliyev</b>	
Koshifiyning adabiy-pedagogik merosi va uning yoshlarning ma'naviy ahloqiy qadriyatlar tizimiga ta'siri.....	208
<b>U.Q.Maqsudov</b>	
Modernizatsiyalash sharoitlarida talabalarning kasbiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari.....	212
<b>O.N.Fozilova</b>	
Maktabgacha ta'lifda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Buyuk Britaniya) .....	217
<b>M.E.Xallokova</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'zin texnologiyasining faollashtiruvchi omillari.....	222
<b>I.S.Soliyev</b>	
Maktabgacha ta'lif tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy omillari .....	227
<b>F.O.'O'rino</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati .....	232
<b>R.Y.O'rino</b>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari.....	238



УО'К: 371.1: 371.331.88

## O'QUVCHILARDA AKSIOLOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

**МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ**

**MECHANISMS OF DEVELOPMENT OF AXIOLOGICAL COMPETENCES IN STUDENTS**

**Siddiqov Baxtiyor Saidkulovich** 

Farg'onan davlat universiteti pedagogika kafedrasini v.b.professori, p.f.n.

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlanishiga etish uchun ularning ma'nnaviy-ma'rifiy tadbirda ishtirok etish ehtiyojini kuchaytirish bilan ularda aksiologik kompetensiyalarni rivojlanishiga ijobiy tasirini o'tkazuvchi tadbirdarni keng joriy etish taqozo etilishi aniqlandi. O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlanishda ularning ma'nnaviy qadriyatlarini, ijtimoiy yo'nalganligini, ideallari, hayotiy strategiyalarni muhim ahamiyat kasb etishi "O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlanish mehanizmi" deb nomlangan 1-rasmida keltirilgan. Ushbu keltirilgan mehanizmda ma'nnaviy-axloqiy qadriyatlar, madaniy an'analar; umuminsoniy qadriyatlarni anglash va ularga hurmat bilan qarash hamda jamiyat qadriyatlariga amal qilish; davom etib kelayotgan an'analariga sodiq qolish; faoliyat asosi bo'lgan haqqoniylik va kamtarinlikka e'tibor qaratish. Sanab o'tilgan qadriyatlarning barchasi o'quvchilarning aksiologik kompetensiyalari qaysi darajada shakllanganini baholashning me'zoni bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'quvchilarda dunyoqarashni kengaytirish, o'quv ma'lumotlarni o'zlashtirish, sohaga oid kompetensiyalarni rivojlanishda uchun o'quvchilar tomonidan ifodalananadigan aksiologik kompetensiyalar muayyan pedagogik-kontseptual yondashuvlar asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Ushbu bosqichlar o'quvchilarning aksiologik kompetensiyalarini rivojlanishda pedagogik shart-sharoitlar, didaktikadagi printsiplar, yondashuvlar asosida amalga oshirilishi "O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlanish bosqichlari" deb nomlangan 1-jadvalda batafsil bayon qilingan.

### **Аннотация**

В данной статье определено, что необходимо развивать у студентов аксиологические компетенции, усиливать их потребность в участии в духовно-просветительских мероприятиях, широко внедрять виды деятельности, положительно влияющие на развитие у них аксиологических компетенций. Значение их духовных ценностей, социальной ориентации, идеалов и жизненных стратегий в развитии ценностных компетенций студентов представлено на рисунке 1, озаглавленном «Механизм развития ценностных компетенций студентов». В этом механизме заложены духовно-нравственные ценности, культурные традиции; понимание и уважение общечеловеческих ценностей и следование ценностям общества; оставаться верным продолжающимся традициям; ориентируясь на честность и смирение как основу деятельности. Все перечисленные ценности могут служить критериями оценки уровня ценностных компетенций студентов. В целях расширения кругозора учащихся, усвоения учебной информации, развития профильных компетенций желательно формировать ценностные компетенции, выраженные у обучающихся, на основе определенных педагогических и концептуальных подходов. Реализация этих этапов развития ценностных компетенций студентов на основе педагогических условий, дидактических принципов и подходов подробно описана в таблице 1, озаглавленной «Этапы формирования аксиологических компетенций студентов».

### **Abstract**

In this article, it was determined that it is necessary to develop axiological competences in students, strengthen their need to participate in spiritual-educational events, and widely introduce activities that have a positive effect on the development of axiological competences in them. The importance of their spiritual values, social orientation, ideals, and life strategies in the development of axiological competencies in students is presented in Figure 1, entitled "Mechanism of developing axiological competencies in students". In this mentioned mechanism, spiritual and moral values, cultural traditions; understanding and respecting universal human values and following the values of society; to remain faithful to the continuing traditions; focusing on honesty and humility as the basis of activity. All of the listed values can serve as criteria for assessing the level of students' axiological competences. In order to expand students' outlook, learn educational information, and develop field-related competencies, it is desirable to form axiological competencies expressed by students based on certain pedagogical and conceptual approaches. The implementation of these stages in the development of axiological competencies of students on the basis of pedagogical conditions, didactic principles and approaches is described in detail in Table 1 entitled "Stages of developing axiological competencies in students".

**Kalit so'zlar:** o'quvchi, aksiologik, aksiologik kompetensiya, tarbiya.

**Ключевые слова:** студент, аксиологический, аксиологическая компетентность, образование.  
**Key words:** student, axiological, axiological competence, education.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldag'i "Umumiy o'rta ta'lif muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarori asosida "Vatan tuyg'usi", "Odobnoma", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 1-9-sinflarda 2020-2021-o'quv yilidan va 10-11-sinflarda 2021-2022-o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida amaliyotga joriy etildi[1].

2020-2023-yillarda respublikamizning pedagogika oliy ta'lif muassasalarining «Boshlang'ich ta'lif», «Tarix» (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha), «Tarix o'qitish metodikasi», «Filologiya va tillarni o'qitish: O'zbek tili», «O'zbek tili va adabiyoti», «Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi», «Pedagogika va psixologiya», «Dinshunoslik» va Islomshunoslik (Islom tarixi va manbashunosligi)», «Psixologiya (Din sotsiopsixologiyasi)» ta'lif yo'nalishlari bitiruvchilariga umumiy o'rta ta'lif maktablarida «Tarbiya» fanini o'qitish huquqi berildi[1].

Tadqiqot mayonchalari sifatida tanlab olgan maktablar, ya'ni Farg'ona shahridagi 12, 56, 76-maktablari, Toshkent shahrining 201, 268, 258-son maktablar, Samaraqand shahrining 11,15,98-son, Jizzax viloyatining 45,92-son umumiy o'rta ta'lif maktablarida «Tarbiya» fanining o'qitilishi xususiyatlari o'rganildi.

Maktablarning bitiruvchi sinf o'quvchilari 11-sinfda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus dastur ishlab chiqildi. Tarbiya o'quv predmetida o'quvchilarga xalqimizning To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, To'ychi Eryigitov, Zebo G'aniyeva, Jamila Qodirova kabi alp o'g'lonlariyu, shijoatkor qizlarining mardligiyu, jasurligini ibrat qilish asnosida hamda xalqimizning shonli tarixiga tayangan holda, tarixiylik va muntazamlilik printsiplari asosida aksiologik kompetensiyalar rivojlantirildi.

Umumiy o'rta ta'lif muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarda aksiologik kompetensiyalar darajasini o'stirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga sadoqatlichkeitni shakllantirish erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish printsipi asosida olib borildi.

Ijtimoiy infrastrukturalarda yoshlarda aksiologik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish, ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish aniqlik va tezkorlik printsipi asosida amalga oshiriladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'lishicha, tadqiqotchilar F.N.Alkarova, Y.F.Zaripov ilmiy tadqiqot ishida tadqiq etilayotgan muammoning yechimini topish davrida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini faollashtirish vaziyatlarini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelini taklif etishgan.

Axloqiy sifatlarning shakllanishi ustida tadqiqot olib borgan qozog'istonlik olma S.M.Mordanova ilmiy risolasida, axloqiy sifatlar shakllanishining pedagogik modelini axloqqa mo'ljal olgan nuqta, axloqni shakllantiruvchi va axloqiy natija beruvchi nuqatalarga bo'lib tavsiflab bergen.

Olimaning fikriga ko'ra: 1) axloqqa mo'ljal olgan nuqta – axloqiy sifatlarni shakllantirish qirralarini ochib berib, etnopedagogika vositalari yordamida o'quvchilarda axloqiy sifatlarning shakllanishiga e'tiborni jalb etadi. 2) modelning axloqni shakllantiruvchi bo'nagi ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: a) gumanitar majmuaga umumta'lim fanlari materiallarini o'rganishga urg'u berilgan o'quv faoliyati b) sinfdan tashqari faoliyat, o'quvchilarning nafaqat hududiy, viloyat va respublika miqyosidagi o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishlari orqali amalga oshiriladi. 3) axloqiy natija beruvchi nuqta – aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishni va o'quvchilarda axloqiy sifatlarning shakllanish darajasini baholash imkonini beradi", [5, 77] - degan fikrni ilgari suradi.

R.K.Akchulpanova ilmiy tadqiqot ishida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda pedagogik sharoitga e'tibor qaratgan va "o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi pedagogik sharoit jarayonini samarali shakllantirishga bog'liqligini ko'rib chiqadi. Umuman olganda, bu "pedagogik sharoit ta'lif berish jarayonining barcha komponentlarini amalga oshirish, maqsadga mo'ljal olishdan boshlab, motivlar va stimullarni tashkil etish yo'li bilan natijagacha, faoliyat va uni tartibga solish, maz'munini amalga oshirish va ishlab chiqishgacha bo'lgan jarayonga" [4, 71] e'tibor qaratadi.


## PEDAGOGIKA

Y.F.Zaripov fikriga ko'ra, "tarbiya jarayonida irodani, insonning ijobjiy xarakteri qirralarini, ijobjiy intilishlarini shakllantirishni va shaxning estetik ehtiyojlarini qondirish va tarbiyalash masalasi hal etiladi. Shunday ekan, u holda o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, nafaqat so'zda emas, balki amalda ham – o'ta ustivor bo'lib qoladi. Shuningdek, Y.F.Zaripov hozirgi zamon ta'lif muassasalarida ta'lif jarayonini tashkil etishda shubhasiz hisobga olinishi zarur bo'lgan, tendensiya yuzaga kelganligini ta'kidlaydi: birinchidan, o'quv-tarbiyaviy jarayonning eskirganligi, o'quvchilar shaxsiy rivojlanishlariga pedagogik ta'sirning differensiallangan xususiyatini ochib beruvchi, ta'lif tizimi maqsadli mo'ljalari va qadriyatlarini, mazmunini madaniy jihatdan qayta anglash zarurating paydo bo'lganligi; ikkinchidan, insonning ijtimoiy madaniy yaxlitligi printsipini hisobga olgan holda ma'naviy-axloqiy tarbiya g'oyasi ustivorligida o'quvchilarning tarbiyasini tashkil etish va mazmunini ijtimoiy-madaniy integratsiyalash yo'llini yanada ilmiy asoslash zarur,"[3, 12],- deb tadqiqot yo'naliшини ко'rsatib bergen.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Keltirilgan vazifalardan kelib chiqib, bizning tadqiqot ishimizda foydalanish uchun, o'quvchi yoshlar ongida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish ehtiyojini kuchaytirish bilan ularda aksiologik kompetensiyalarni rivojlanishiga ijobjiy tasirini o'tkazuvchi tadbirlarni keng joriy etish taqozo etilishi aniqlandi.

O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirishda ularning ma'naviy qadriyatları, ijtimoiy yo'nalganligi, ideallari, hayotiy strategiyalari muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi (1-rasm).



**1-rasm. O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmi**

Ushbu keltirilgan mexanizmda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, madaniy an'analar; umuminsoniy qadriyatlarni anglash va ularga hurmat bilan qarash hamda jamiyat qadriyatlariga amal qilish; davom etib kelayotgan an'analarga sodiq qolish; faoliyat asosi bo'lgan haqqoniylilik va kamtarinlikka e'tibor qaratish. Sanab o'tilgan qadriyatlarning barchasi o'quvchilarning aksiologik kompetensiyalari qaysi darajada shakllanganini baholashning me'zoni bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'quvchilarning aksiologik kompetensiyalarini rivojlantirishga qo'yilgan zamonaiviy talablarni, amalga oshirish faoliyati mexanizmini tahlil qilib, ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish kontseptsiyasiga ayrim o'zgartirishlar kiritish zarur, degan xulosaga keldik. Agar o'quvchining ma'naviy ozuqasi, jamiyatda mavjud eng kam ma'naviy meyordan yuqori yoki unga teng bo'lsa, bunday faoliyatdan olinadigan ma'naviy-axloqiy ozuqani samarasiz, deb baholash mumkin.

Agar o'quvchining olgan ma'naviy axloqiy ozuqasi eng kam ma'naviy meyordan ham kam bo'lsa, bunday faoliyatdan olingen ma'naviy-axloqiy ozuqani samarasiz, deb baholash mumkin,

chunki bu o'quvchining ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarini qondira olmaydi. Bunday holatda, pedagogikaning vazifasi, o'quvchilar aksiologik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali jihatlarini ta'minlash va samarasiz tomonlarini aniqlab, uni samarali tomonga o'zgartirish tadbirlarini qamrab olishi zarur.

2020-2023-yillarda tajriba-sinov ishlarni o'tkazishda tarbiyaviy ishlar mexanizmlarini takomillashtirish ta'limgartibidaning psixologik xususiyatlarini ushbu yo'nalishlar doirasida yetarlicha chuqurlashtirib yoritish ehtiyojini keltirib chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida, yoshlarning ma'naviy - axloqiy rivojlanishiga va ta'limgartibidaning tizimiga alohida e'tibor qaratgan. "Yurtimizda keyingi paytda ushbu yo'nalish bo'yicha yangi tizim yaratilmoqda. Bu esa fuqarolarimizning ijtimoiy faolligi, Vatan va xalq taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish, ularning zamonaviy, demokratik O'zbekiston davlatini barpo etishda munosib ishtirokini ta'minlash omilidir," [2] - deb alohida ta'kidlagan.

Ta'limgartibidaning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, yoshlarga aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish, milliy an'analarga sodiqqliq ruhini singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ish olib borish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi pedagoglar jamoatchiligi oldiga o'ta muhim masalani ko'ndalang qilib qo'ydi – o'quv-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchi yoshlarni ijodiy fikrlashga, erkin raqobat asosida o'quv jarayonini tashkil etishni hamda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayonini loyihalashtirishni va amalga oshirishni ustivor yo'nalish qilib qo'ydi.

Prezident va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan Farmon va Qarorlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'rta ta'limgartibidaning muassasalarida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ishlar, ularda aksiologik kompetensiyalar, ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishi va rivojlantirilishi maqsadlariga qaratilishi zarur. Bizning fikrimizga ko'ra, o'quvchi yoshlarda aksiologik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun tarbiyaning asosiy printsiplariga tayanish zarur. Ular: ilmiylik; tarixiylik; anqlik va tezkorlik; muntazamlilik; faoliylik; ta'limgartibidaning uyg'unligi; tarbiya jarayonining izchilligi; erishilgan ijobjiy natija va yutuqlarga tayanish. Darhaqiqat, ta'limgartibidaning muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning kelgusida nafaqat yetuk mutaxassis, balki o'z ona yurtini sevuvchi faol fuqaro sifatida tayyorlash, ularning vatanparvarligini rivojlantirish jamiyatimiz, millatimizning har qanday xavf va tahdidlarga bardosh bera olishini ta'minlash demakdir. Bu ishga ta'limgartibidaning ishlaring uyg'unligi, ilmiylik va tarixiylik printsiplari asosida yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ijtimoiy hayot jabhalaridagi faolligini rivojlantirish, "Bu-mening uyim!", "Mening mahallam!", "Mening ona yurtim!" qabilida daxldorlik hissini uyg'otish, ularning iroda safarbarligini elu yurt xizmatiga fido qilishga undash - bularning barchasi tarbiya jarayonining izchilligi printsipi asosida amalga oshiriladi.

Tahsil oluvchilarda dunyoqarashni kengaytirish, o'quv ma'lumotlarni o'zlashtirish, sohaga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o'quvchilar tomonidan ifodalananadigan aksiologik kompetensiyalar muayyan pedagogik-kontseptual yondashuvlar asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Ushbu bosqichlar o'quvchilarning aksiologik kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlar, didaktikadagi printsiplar, yondashuvlar asosida amalga oshiriladi (1-jadvalga qarang) [6, 212].

### 1-jadval

#### O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari

No	Bosqichlar	Pedagogik shart-sharoitlar	Tarbiya printsiplari	Yondashuvlar
1.	O'z faoliyatini baholash	Moddiy-texnik bazaning modernizatsiyalashuvi	Tarixiylik, ong'lilik tamoyiliga asoslanganligi	Pedagogik-kontseptual
2.	Jamiyat, o'zgalar manfaatini ustun quyish, boshqaruv samaradorligi	O'quv, o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlanganlik	Insonparvarlik uzviylik, anglanganlik	Kompetensiyaviy, tizimli
3.	Ta'limgartibidaning	Pedagogik va didaktik	Nazariya va	Shaxsga

## PEDAGOGIKA

kelgusidagi mutaxassisligi bilan bog'langanligi	jarayonlarning tizimlashtirilganligi	amaliyotning bog'liqligi	yo'naltirilgan
4. Analitik-sintetik faoliyatli	ilmiy laboratoriyalarning mavjuligi, sinflar, o'quv kabinetlari, o'qish zallari, kutubxonalar, shuningdek axborot-resurs markazlari xizmatlarining sifatiligi	Ilmiylik, tadrijiyidik	Pragmatik, faoliyatli, sotsiogenetik
5. Refleksiya	o'quv vositalarining zamонавиу элементларидан foydalanish	Izchillik, ketma-ketlik	Gumanistik Biogenetik

Jadvalda ifodalanganidek, o'quvchilarda aksilogik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va pedagogik-kontseptual yondashuvlar ularning ma'nnaviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi, shaxs va jamiyat rivojlanishining ehtiyojlarini ifoda etadi. Ularning individual rivojlanib, o'zini to'liq namoyon qilishi, javobgarlik, mas'uliyatlilik, jamoa bo'lib ishlash, o'zaro yordam va boshqa qimmatli fazilatlarini voyaga yetkazadi. Ushbu maqsadlar pedagogik jarayonni tashkil etishning jamoaviy, guruhiy va individual shakllarining maqbul kombinatsiyasini nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda aksilogik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari uning asosiy tarkibiy qismlari o'rtaida mavjud bo'lgan bog'lanishlar va o'zaro bog'liqliklarni hisobga oladi, ya'ni integral pedagogik jarayonning tarkibiy qismi sifatida o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayonlarining o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladi. Bunda o'quvchi faoliyati va pedagogik munosabatlar o'rtaida bog'lanishlar va uning rivojlanishi natijalari; tahsil oluvchilarning qobiliyatları (yoshi, individual) va unga pedagogik ta'sirlarning tabiatı o'rtaida bog'liqlik; pedagogik tizimda o'quvchilar salohiyati va shaxs o'rtaida bog'liqlik hisobga olinadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- <https://lex.uz/ru/docs/-4885018>
- <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
- В.В.Рыбников «Формирование духовно-нравственных ценностей студентов». Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук – Саратов, 2013.-С.12.
- Р.К.Акчулпанова «Формирование будущих учителей готовности к духовнонравственному воспитанию школьников на основе этнокультурного подхода». Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Чебоксары, 2014. – с. 71.
- С.М. Морданова. Формирование нравственных качеств у студентов в образовательных учреждениях средствами этнопедагогики. Монография. Костанай, 2018.-с.77.
- Ibragimovich, I. X., & Saidkulovich, S. B. (2023). MECHANISMS OF DEVELOPMENT OF AXIOLOGICAL COMPETENCES IN STUDENTS. *Science and Innovation*, 2(11), 209-213.
- Saidkulovich, S. B. (2023). AXIOLOGICAL APPROACH IN PROFESSIONAL EDUCATION OF STUDENTS. *British View*, 8(3).
- Saidkulovich, S. B. (2023). CONCEPT AND STRUCTURE OF WORLD VIEW IN MODERN SOCIETY. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 8(4), 35-37.